

Nasiba Turg'unova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari doktori (PhD)
E-mail: nasiba2507@mail.ru
ORCID: 0009-0001-0407-1645*

MUSTAQILLIK DAVRIDA YALLA SAN'ATI

***Annotatsiya.** Hozirgi davrga kelib ayollar yallachilik san'atining ko'p asrlik milliy qadriyatlar qatorida e'zozlanayotgan hayotbaxsh an'analari mamlakatimizning barcha madaniy hududlari bo'ylab dadil odimladi, "Mustaqillik" va "Navro'z" umumxalq bayramlari tantanalarida, shuningdek turli miqyosda o'tkazilayotgan festival va ko'rik-tanlovlar munosabati bilan xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Fransiya, AQSH va b.)ning katta sahnalarida ham munosib namoyish etilayotgani quvonarlidir.*

Qolaversa, ayollar ijodining jozibali va farahbaxsh ohang-usullari o'zbek milliy estrada aytimlarini yaratishdagi ilk urinishlardan boshlab, to shu kungacha davom etayotgan ijodiy jarayonlarda butkul tayanch namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

***Kalit so'zlar:** yalla, yallachi, an'ana, raqs, ijod, ohang, milliy estrada.*

ИСКУССТВО ЯЛЛА В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

***Аннотация.** В настоящее время жизнеспособные традиции женского искусства исполнения ялла, почитаемые как часть многовековых национальных ценностей, уверенно распространяются по всем культурным регионам нашей страны. Отрадно, что они достойно демонстрируются на торжествах всенародных праздников «Мустакиллик» и «Навруз», а также на различных фестивалях и конкурсах, проводимых в разных масштабах, и на крупных сценах зарубежных стран, таких как Германия, Франция, США и других.*

Кроме того, яркие и жизнерадостные мелодико-ритмические особенности женского творчества, начиная с первых попыток создания произведений узбекской национальной эстрадной песни и до сегодняшнего дня,

служат прочной опорой и образцом в непрерывно развивающемся творческом процессе.

Ключевые слова: ялла, исполнитель ялла, традиция, танец, творчество, мелодия, национальная эстрада.

THE ART OF YALLA DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Abstract. *It is gratifying that today, the life-giving traditions of women's creativity, which are revered as centuries-old national values, have spread boldly throughout all cultural regions of our country and are being adequately demonstrated on the big stages of foreign countries (Germany, France, the USA, etc.) during the celebrations of the national holidays "Independence" and "Navruz", as well as on the occasion of festivals and competitions held on various scales.*

Moreover, the attractive and joyful melodies and styles of women's creativity have served as a reference model in the creative processes that continue to this day, from the first attempts to create Uzbek national pop songs.

Keywords: yalla, yallachi, tradition, dance, creativity, melody, national pop.

Vatanimiz mustaqillik maqomiga erishgan kundan boshlab yosh avlodni har jihatdan – ham ma'nan, ham jismonan sog'lom va barkamol inson bo'lib voyaga etishiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, yoshlarning ma'naviy olamini go'zal tarzda shakllantirish va yuksaltirishda, ma'lumki, musiqa san'atining o'рни beqiyosdir. Shu bois Vatanimizda musiqiy ta'lim va tarbiya qatorida ijtimoiy madaniyatni ham o'stirish ishlariga hukumatimiz tomonidan jiddiy yondoshilmoqda.

Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari butun dunyoda jadallashgan bir paytda milliy qadriyatlarga asoslangan musiqa namunalarining badiiy ahamiyati benihoya muhimdir. Ayniqsa gap musiqiy estrada haqida ketganida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa

madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san'ati namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi" [1, 80-b].

Bugungi kunda milliy musiqa an'alarimizni yangi sharoitlarda rivojlantirish, maxsus ta'lim tizimiga musiqiy meros va jahon mumtoz musiqasi namunalarini joriy etish hamda estrada qo'shiqchiligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (1995), "O'zbekistonda estrada san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi (1998) Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Estrada qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi (2001) chora-tadbirlari estrada qo'shiqchiligi jabhasida yuzaga kelgan dolzarb muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi [2, 4-b].

Qayd etish joizki, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2026-yil 1-iyun kuni "madaniyat, san'at va adabiyot xodimlari bilan sohalarni yanada rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish, shuningdek, ijodkorlarga munosib shart-sharoitlar yaratish hamda sohada xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida" muhim Farmoni qabul qilindi [7]. Xususan, ushbu Farmonga ko'ra "teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u, tasviriy va amaliy san'at hamda adabiyot kabi yo'nalishlarda ijodiy birlashmalar faoliyatini yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash; opera, simfoniya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar bo'yicha har yili kamida 20 ta yangi asar yaratish uchun ijodkorlarga davlat buyurtmasi berish; iste'dodlar va ularning ustozlarini qo'llab-quvvatlash; har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasida musiqa va san'at yo'nalishida kamida 4 tadan to'garak tashkil qilish" chora-tadbirlari san'at ahli faoliyatini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, milliy estrada san'atini shakllantirishda boy musiqiy meros zaxiralari bebaho manbadir. Ko'p asrlik yallachilik badiiy an'analari ana shunday qiymatga ega muhim manbalardan biri ekanligi shak-shubha tug'dirmaydi. Qolaversa, ayollar ijodida ravnaq topgan yalla janri o'zining hozirgi davr jo'shqin hayot oqimlariga har jihatdan muvofiq shakl-u shamoyili bilan milliy estrada qo'shiqchiligini yangi bosqichga yuksaltirishda muhim zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Aslini olganda, bugungi kun estrada musiqasida etakchi o'rinda bo'lgan hamda "qo'shiq" nomi bilan yuritilayotgan aytim namunalari mohiyatan "qo'shiq" janri talablariga emas, balki shakl-u shamoyiliga ko'ra aynan yalla janriga monanddir. Zero, so'z, kuy va raqs mushtarakligini taqozo etuvchi band-naqarot shakliga ega yalla janrining tasnifiy belgilarini hozirda "estrada qo'shig'i" nomi bilan atalayotgan aksariyat namunalarda namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Darhaqiqat, asosan band-naqarot shaklida kelgan bugungi estrada qo'shiqlarini ijro etishda xonanda bilan birga yana alohida raqqos (yoki raqqosalar) ham ishtirok etishi, yallalarda bo'lgani kabi, odatiy bo'lib qoldi. Aslida, o'zbek musiqa estradasining yarim asrdan ziyod rivoji shunday natijaga kelishi ko'p jihatdan tabiiydir. Chunki, o'tgan davr mobaynida musiqiy estrada ijodkorlari milliy ruh bilan sug'orilgan ommaviy qo'shiqlarni ijod etishda yallachilik aytim namunalari va badiiy an'alarini ham estrada yo'siniga mos ifodalashda muntazam urinishlarini amalga oshirib keldilar.

Bu boradagi dastlabki muvaffaqiyatli natija esa atoqli kompozitor Sharif Ramazonovning "Namanganning olmasi" bilan bog'liq yuzaga kelgan edi. Ushbu namunada yallachilikda mashhur ohang va usullar zamonaviy estradaga xos ayrim jihatlar bilan ijodiy uyg'unlashtiriladi. Shu singari ijodiy uslub keyinchalik (1970-yillari) "Yalla" vokal-cholg'u ansambli faoliyatida davom ettirilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda mazkur ansambl "yalla" nomni bejiz olmaganligini qayd etish kerak. Chunki ansambl faoliyatida yallachilik san'atida kuzatilgani kabi asosiy e'tiborini omma orasida keng tarqalgan lapar, yalla va

ashulalarga o'z yo'sinida jilo berish, hamda ularni raqsboq tarzda tinglovchilar hukmiga havola etilishi ustuvor bo'lib keldi. Shu jumladan, yallachilar san'atida mashhur "Yallama yorim", "Omon yor", "Olmani otdim" kabi bir qator yallalar ham ansambl talqinida tinglovchilar qalbidan joy oldi.

Binobarin, hozirgi kunda xalq orasida "estrada qo'shiqlari" deb yuritilayotgan aytim namunalari o'z janriga ko'ra ko'proq "estrada yallalari"dir. Shu bilan birga o'zbek estrada qo'shiqchiligida kelib chiqish ohang-usul manbalari xilma-xil bo'lgan namunalar ham ko'plab topiladi. Bu borada musiqashunos D.Mullajonovning maxsus olib borgan tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, hozirgi estrada san'atida quyida qayd etilgan ohanglar amaliyotda qo'llanilmoqda:

- 1) an'anaviy "andozalarga" bog'langan ohanglar;
- 2) xorijiy estrada "shlyagerlariga" taqlid etilgan ohanglar;
- 3) xorijiy estrada "xit"laridan ko'chirib olingan ohanglar" [4, 64-b].

Tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, xorijiy estrada "shlyagerlariga" taqlid etilgan va xorijiy "xit"lardan ko'chirib olish natijasida yuzaga kelgan estrada qo'shiqlarining badiiy qiymati yuqori bo'lmagani holda umri ham boqiy emas. Bundan birinchi bandda ko'rsatilgan "an'anaviy andozalar", ya'ni milliy ohanglarga ijodiy tayanib yaratilgan aytim namunalari mustasnodir. Jumladan, F.Zokirovning "Yurt ishqida yonaman", Yu.Usmanovning "Elim", D.Omonullayevaning "Men seni hech kimga bermayman", "Yomg'ir", R.Abdullayevning "Mustaqillik lolalarimiz", A.Rasulovning "Elim deb", "Haqiqat izlagan armon" kabi estrada qo'shiqlarida miliy ohanglardan unumli foydalanilgan [4, 65–66-b]. Shu jihatlari ham bois bunday namunalar o'zining mazmundorligi va serjiloligi bilan tinglovchilarning qalbidan o'rin oldi.

Misol sifatida kompozitor Dilorom Omonullayevaning "Men seni hech kimga bermayman" yallanamo aytimiga to'xtalib o'tamiz. "d-eoliy" tonalligida bo'lgan ushbu namuna quyi trixordli ("f-e-d") ohang tuzilmasi asosida unib o'sadi. Aynan shu tuzilma ham **band**, ham **naqarot** kuyining ohang mazmunini belgilaydi. Bunda ayollar ohang lug'ati mohiyatida mavjud mung holati ikki hissali qashqarcha usuliga

yaqin ritmik tuzilma evaziga raqs tusini oladi. Asarning har bir bandi yakunida takrorlanuvchi “Men seni oylarga, men seni hech kimga bermayman” misrasi o‘ziga xos naqarot vazifasini o‘taydi. Bu misraga bog‘liq kelgan kuy ohangi ham naqarot “talablari”ga muvofiq o‘zgarmaydi. Demak, kompozitor Dilorom Omonullayevaning “Men seni hech kimga bermayman” qo‘shig‘ida yallachilikka xos ijodiy an‘analarning o‘zgacha talqinini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga hozirgi estrada qo‘shiqchiligida yallachilik an‘analariga ixtiyoriy (yoki aksincha, ixtiyorsiz) ravishda tayanish tamoyili nihoyatda kuchlanganligini qayd etish kerak. Natijada, yallalarning hatto estrada ko‘rinishidagi yangi shakllari yuzaga kelayotganligini e‘tirof qilish mumkin. Bu o‘rinda ayniqsa, Farg‘ona vodiysi an‘analari bilan ulg‘aygan san‘atkorlar – Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Alisher Turdiyev, Oyposhsha Ulug‘xo‘jayeva, Malika Egamberdiyevlarning estrada qo‘shiqchilik faoliyati e‘tiborli bo‘lmoqda.


Jumladan, zamonaviy talqinda ijro etilgan yallalardan biri “Bozorga boqqol” namunasidir. Avloddan avlodga “ustoz-shogrid” an‘analari orqali o‘tib bugungi kungacha meros kelgan ushbu yalla Namangan yallachilari ijro dasturlarida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu namunaning Qunduzxon Egamberdiyeva ijrosidagi eski varianti “d-frigiy” ladiga asoslangan kvarta doirasidagi ohang hamda tanavor usuli asosida ijro etiladi. Yallaning bandlari “e” tovushidan boshlanib, jumla “Yor-yor” andozasi III-II-I (“f-es-d”) negizida tayanch “d” pardada yakunlanadi. Yallaning umumiy tuzilishi band-naqarot shaklida bo‘lib, quyidagi tarzda aks etadi.

$$\begin{array}{cc} \text{A- band} & \text{B naqarot} \\ \hline a \ b \ a^1 \ b^1 & a \ b \ v \end{array}$$


Ushbu yalla Oyposhsha Ulug‘xo‘jayeva talqinida ikki qismli kichik yalla shakliga keltirilib, milliy estrada yo‘nalishida xalqimizga havola etildi. Shunga ko‘ra birinchi qismda yallaning asl ohangi va usuli saqlab qolingani bo‘lib, undagi yangilik esa she‘r matnning ikkinchi to‘rtligida kelgan yangi so‘zlar va tez sur‘atda (Allegro moderato) raqsnamo ijro etilishida seziladi. Oyposhsha Ulug‘xo‘jayeva tomonidan

ijro etilgan yallada asosan dutor va (doyra) jo'rligiga urg'u berilib, dastlab dutor sozida 4 taktili kirish qismi pirrang zarbida ijro etiladi:

BOZORGA BOQQOL



Dutor sozining turli pirrang zarblari yallaga o'zgacha ko'rinish bag'ishlaydi. Birinchi bandning to'rtinchi misrasidan e'tiboran elektron cholg'ulardan (organ, shiqildoq, va b.) bas akkordlarga urg'u berila boshlanadi. Yallaning ikkinchi qismida esa ashulaga xos yuqori avj pardalaridan ham unumli foydalanilganligini ko'ramiz. Bu esa o'z navbatida yallaga o'ziga xos tarovat bag'ishlab, ijrochidan katta mahorat talab etadi:



Natijada aytimning tovush oralig'i birinchi oktava "d¹"dan ikkinchi oktava "d²"ga qadar rivojlanib borib, oktava darajasidagi tovushqatorini hosil qiladi. Shuningdek, ushbu qismda "o'zim aylanay, o'zim o'rgulay" so'zlari she'riy to'rtlikdan so'ng takrorlanib kelishi o'laroq har bir band ichida o'ziga xos kichik naqarotni yuzaga keltiradi [5, 223–224-b].

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik sharofati bilan ayollar ijodi yangi ma'no va qadr-qimmat topdi. Zero, bu davrga kelib xotin-qizlarga nisbatan olib borilgan davlat siyosati tubdan ijobiy tomon o'zgardi, "istiqlol o'zbek ayolining onaligini qadrladi, unga cheksiz rag'bat, katta ishonch, ulkan imkoniyatlar berdi" [3, 157-b]. "Ayollarni har qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamizni, vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz". Chunki, "millatimizning shon-u shavkati, baxt va saodati, birinchi galda, onalarning ma'naviyati, madaniyati hamda salomatligi bilan bog'liq" [3, 157–158-b].

Yangi davr zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatida Farg'ona vodiysi yallachilik an'analari turfa shakllarda namoyon bo'lmoqda. Bunda, bir tomondan, yallachilik namoyandalarining ijodida zamonga hamnafas yangi qirralar kuzatilsa, ikkinchi tomondan – bu san'at an'alarining yangi shakllardagi ko'rinishlari va talqinlari yallachi (satang) va turli folklor-etnografik ansambllari faoliyatida ko'zga tashlanadi.

Bugungi yosh san'atkorlar ijodida Farg'ona vodiysi yallachi ayollarining ijod mahsullariga bo'lgan qiziqishlari tobora ortib borayotganligi e'tiborlidir. Jumladan, Ozodbek Nazarbekov ("Do'qi, do'qi, do'q"), Ilhom Farmonov ("Shaydini shaydo"), Gulsanam Mamazoitova ("Ajab ajab", "Olicha"), Zoya Soy ("Namanganning olmasi"), Alisher Turdiyev ("Bilmadingizda"), Oyposhsha Ulug'xo'jayeva ("Bozorga boqqol"), Malika Egamberdiyeva ("Farg'onacha poppuri") va boshqa san'atkorlar ijrolarida yallalarning o'ziga xos zamonaviy talqinlari yuzaga keldi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan muhim sa'y-harakatlar natijasida ayollardan tashkil topgan folklor-etnografik ansambllarining faoliyatida ham

sezilarli sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, har bir jamoa festival va tanlovlardagi chiqishlarida o'zining tuman va mahalliy hududlariga xos bo'lgan urf-odat va marosimlar qatorida yallachilik aytimlarini ham teatrlashtirilgan holda sahnaga olib chiqishi yangi an'anaga aylanib ulgurdi.

Qolaversa, Farg'ona vodiysi yallachilik an'analari estrada sahnalarida ham tantana qilmoqda. Zero, o'zbek estrada qo'shiqchiligining ilk shakllanish paytidan boshlab eng muhim manbayi bo'lib kelayotgan yalla aytim-raqslari bugungi avlod xonandalari ijodida yanada keng o'rin tutayotir. Bunda yallachilik an'alarining o'ziga xos ko'rinishdagi yangi hayotini ham anglash mumkin. Bu yo'lda davom etayotgan tinimsiz izlanishlar esa yangi badiiy natija va ijodiy yutuqlar garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. *O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi.* – Toshkent, 1995. – № 10-11.
3. Maxmudov Yu.F. *Milliy g'urur – ma'naviy komillik mezon.* – Toshkent: Dizayn-Pres. 2011. – 276 b.
4. Mullajonov D. *1990 yillar o'zbek musiqiy estradasida ohang muammosi. San. fan. nom. dissertatsiyasi.* – Toshkent. O'zR FA San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. №1002. – 2003. – 151 b.
5. Turg'unova N. *Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati.* – Namangan: Namangan, 2016. – 364 b.
6. Turg'unova N. *Namangan yallachilik san'ati an'analari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.* – Toshkent, 2018. O'zR FA San'atshunoslik instituti kutubxonasi. – 124 b.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/>